

## IJODIY PORTRETGA CHIZGILAR

*Dilnavoz Nazarova, BuxDU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada adabiy tanqidchilik janrlaridan biri adabiy portretning bir shakli ijodiy portretning muhim jihatlari buxorolik olimlar ijodi misolida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy tanqid, adabiy portret, shaxs, obraz, ijodiy portret, portretga chizgilar .

O'zbek adabiy tanqidiga janr sifatida XX asrning 20-30-yillaridan kirib kelgan adabiy portret janri bugunga qadar rivojlanib bormoqda. Bu janrda shaxsning mukammal qiyofasini tasvirlash asosiy o'rinda turadi. Chunki unda insonning xarakteri, ichki olami, ijodiy faoliyati, muhit bilan aloqasi o'z aksini topadi. Adabiy portret janrini, uning bir shakli ijodiy portretlarni rivojlantirishga buxorolik olimlar ham munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. O.Safarov va H.Safarovalarning "Navoiyga talpingan yurak", R.Vohidovning «Ezgulik –umr mazmuni» (1992), «Ilohiy ishq jozibasi»(1997), O.Safarovning "To'ra Mirzaev"(2005) Oxunjon Safarov ,Bashorat Jamilovalarning "Bolalik- boqiylik timsoli yoxud muxbirlikning olis yo'llari " portretlari shu silsiladagi asarlardir.

O'zbek adabiyotshunoslari orasida buxorolik olim Rahim Vohidovning ilmdagi alohida topgan e'tibori shundaki, u dadillik va jur'atni hamisha halol gap aytishga ishlatadi. U o'zini shaxsiy manfaat, g'arazlardan hamisha ustun qo'yadi, fikr aytishda behadik, o'zini erkin qo'yib, vijdoni taqozo qilgan gapni aytib keldi. Haqiqiy tanqidchilik jur'atdan tashqari munaqqiddan noyob insoniy fazilatlar, rostgo'ylik, halollik, axloqiy poklikni talab qiladi. Ustoz Rahim Vohidovda xuddi ana shunday fazilatlar mujassam ekanligini uning tanqidiy-biografik yo'nalishdagi asarlarini talil qilish jarayonida ochib berishga harakat qilamiz.

Keyingi yillarda R.Vohidov ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida, ayniqsa, Buxoro adabiy muhiti namoyandalari ijodini o'rganish yetiakchi tamoyilga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Shu jihatdan "Ayniy va buxorolik shoirlar", "Mirzashoh Foiz Buxoriy", "Munzim Buxoriy", "Ibrohim Subhiy", "Buxoroning mashhur shoiri" singari o'nlab maqolalari, "Yaxshilikka baxshida umr" (2001) risolasi e'tiborga loyiq. Bu haqda naoviyshunos olim I.Haqqulov shunday yozadi: "Rahim Vohidov Sharq mumtoz adabiyotimizning ulkan bilimdoni va tolmas tadqiqotchisidir. Domla, xususan, keyingi yillarda g'ayrat ila mehnat qilib, quvonchli natijalarga erishdiki, bundan ibrat olsa arziydi. Rahim Vohidovning ilmiy faoliyatidagi mavzu kengligi va

xilma- xilligi ham diqqatga loyiq”<sup>1</sup>. Haqiqatan ham olimning bugungi kunda 40dan ziyod kitoblari, yuzlab ilmiy maqolalari uning o‘zbek adabiyotshunosligi rivojida salmoqli hissa qo‘shganligidan dalolat beradi.

Ustoz R.Vohidov sermahsul olimlardan, har yili uning ikki uch kitobi dunyo yuzini ko‘rardi. Muhimi shundaki, bu asralar ba’zi tadqiqotchilarning yuqqagina asarlariga o‘xshab soni-yu hajmi bilan emas, balki sifati, o‘ziga xos so‘zi borligi bilan ham ajralib turadi. Bunga olimning “Ishq- ma’rifat qanoti”, “Biz bilgan va bilmagan Bobur”, “Navoiy va ilohiyot”, “Yillardan qolgan ma’naviy yodgorlik”, “Jo‘natilmagan maktublar” kabi kitob va risolalarini misol tarzida keltirish mumkin.

Haqiqatan ham olimning har bir yangi tadqiqoti uzoq izlanishlar mevasi sifatida dunyoga keladi. Chunki uning o‘quvchiga aytadigan yangi fikri, gapi bo‘ladi, uni maromiga yetkazib, qalbu shurga iz qoldirarli darajada bo‘lishi uchun jon kuydiradi. Zamonga hamohang, jamiyat va uning odamlariga nafi tegadigan, yosh avlodning dunyoqarashiga ta’sir qila oladigan asarlar yaratishga intiladi. “Bir nosiru uch shoir haqida topganlarim” tanqidchining o‘quvchiga aytadigan navbatdagi yangi gapi bo‘ldi. Unda Buxoro adabiy muhitining og‘ir yukini yelkalariga olib, tolmasdan ijod qilgan to‘rt zahmatkash ijodkor Muzaffar Tursun, Samandar Vohid, Totshpo‘lat Ahmad va Sadridin Salimning ijodi tahlilu talqin etiladi. Asar sahifalarida bu ijodkorlarning qiyofasi, o‘zbek adabiyoti ravnaqiga qo‘shgan hissalar yorqin misollar orqali bayon etiladi. Tanqidchi har bir ijodkorning o‘ziga xos jihatlarini ochib berar ekan, “nosirga nosirona, nozimlarga nozimona nigoh” bilan baho beradi. Uning tahlil va talqinlari chuqur va haqqoniy, mushohadalari terandir.

“Tanho qalbning nurli tuhflari” hajvchi ijodkor M.Tursunovga bag‘ishlangan bo‘lib, munaqqid bunda o‘z xotiralariga tayanib, hikoya qilish usulini tanlaydi. “Zalvorli o‘zbek adabiyoti va jurnalistikasi gulshaniga o‘z muattar gullaridan arzigulik guldasta tuhfa” qilishga ulgurgan kamsuqum, xoksor, topqir, sinchkov, mulohazali ijodkor do‘sti borligidan faxrlanadi. Yaratgan Qodir egamga behad shukronalar aytadi.

Adib ijodiga baho berar ekan, uni yozuvchi Ahad Hasan bilan qiyoslaydi. “Adibning hikoya va hajviyalarida qalamga olingan ezgulik, yovuzlik, jaholat, xullas, illatlar faqat Jondor-u jondorliklarga xos bo‘lmay, yagona yurtning barcha mintaqalarida ham ko‘zga tashlanadi”. Adibning jiddiy va hajviy hikoyalari hajmining siqirligi, ifoda tarzining sodda va ravonligi bilan diqqatni tortishini ko‘rsatadi.

Adibning “Oqar suv” deb nomlangan maqola eng sara asarlaridan jamlangan “Saylanmasi”ga bag‘ishlangan. Bu to‘plam adibning ijod yo‘li, yozuvchilik iste’dod va mahorati, bugungi o‘zbek adabiyoti olamidagi mavqei xususida yaxlit tasavvurga

<sup>1</sup> Haqqulov I. Mazmunli umr. Kitobda: Qalbim ezgulikka tashna. T. 2007. 52- bet.

kela olish imkoniyatini beradi deb hisoblaydi. Adibning “Tutash jilg‘alar” to‘plamidan yillar davomida yozilgan hikoya, badia, xotira lavhalari, hikmatnamo chizgilari, ayrim maqolayu kichik sahna asarlari joy olgan bo‘lib, tanqidchi ular tahliliga keng o‘rin beradi.

“Shu Vatan omon bo‘lsa bas...” faslida shoir Samandar Vohid ijodiga bir nazar tashlanadi. Va u shunday so‘zlar bilan boshlanadi: “Sarlovha vazifasida qo‘llaganim satr shoirning o‘z halol mulkidir. Men uni Samandarning 60 yillik umri sarhisobi sifatida ixlosmandlariga taqdim etgani “Sunbula” to‘plamidan oldim. Rostini aytsam, salohiyatli shoirning mazkur misrasi g‘ “Shu Vatan, shu tuproq omon bo‘lsa bas” negadir mening yuragimni jizillatib “yarq etib” nazaringa tashlandi”. Shu tariqa to‘plam haqida gapirar ekan, dostonidan olingan o‘sha nazmiy qatorni Samandar Vohid Vatannomasining dasturi vazifasini o‘taydi deydi. Ikkinchidan, Vatan va Istiqloq, Ona yurt va uning fidoyi insonlarini yonma yon tutib, ularni avj pardada kuylash, shunday ulug‘ ne‘matga muyassar etgani she‘rga teran mazmun, jo‘shqinlik baxsh etgani ko‘rsatiladi.

Tanqidchi “Sunbula” dostonini tahlil qilish jarayonida uning yutuqlari bilan birga nuqsonlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Shoir g‘azallarini, she‘rlarini talqin etish jarayonida uning ijodiga xos nozik jihatlarni ham yoritadi.

“Xohlang in qurib beray ko‘zlarim mehrobida...” fasli iste‘doli shoir Toshpo‘lat Ahmad ijodiga chizgilaridan iborat. Bu fasl ham xotiralarni hikoya qilish bilan boshlanadi. Shoirning “Chorbakr” va “Gavhari jonim” kitoblari mutolaasidan uyg‘ongan taassurotlarini o‘quvchi bilan o‘rtoqlashadi. Shoirning orifona she‘rlari mag‘zini chaqish uchun, tub mohiyatini ilg‘amoq uchun ularga teran nazar solish lozim deb hisoblaydi olim. Shuning uchun to‘plamdan o‘rin olgan “Yassaviyona” bo‘limidagi asarlar va turkum tahliliga alohida e‘tibor qaratadi.

“Bir nosir-u uch shoir” to‘plamida munaqqid o‘z kuzatishlariga tayanib ish ko‘radi, o‘zigacha adabiyotshunoslar tomonidan ushbu shoir-u nosirlar ijodiga berilgan qarashlarga tayanmaydi, ammo ularni tilga olib o‘tadi. Adabiyot muhibi sifatida qalbini ilitgan nuqtalarni topib samimiy bayon etadi. Kitobning adabiy tanqidchilik uchun eng muhim fazilatlaridan biri, olim har to‘rtala ijodkor haqida katta ehtirom va hurmat bilan so‘z yuritadi. Ularning o‘zbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlarini ochib beradi. Eng diqqatga sazovor joyi shuki, tanqidchining har mulohazasida, tahlilu talqinlarida adabiyotga bo‘lgan ulkan muhabbat, ijod ahliga ehtirom hissi sezilib turadi. Adabiyotga muhabbat bo‘lgan joydagina haqiqiy asar dunyoga keladi. R.Vohidovning o‘z yurtdoshlari haqidagi ijodiy portretga chizgilari ana shunday muhabbat mevalaridir.